

## TIJORAT BANKLARIDA RAQOBATNI RIVOJLANTIRISH MASALALARI HAMDA RAQOBAT RIVOJLANGANLIK DARAJASI

**Karimov Shamsiddin Akram o'g'li**

Raqobatni rivojlantirish va iste'molchilar huquqlarini himoya qilish qo'mitasi

### ANNOTATSIYA

*Ushbu maqolada banklarda raqobat muhitining rivojlanganlik darajasi hamda banklarda raqobatni rivojlantirish uchun asosiy masalalar keltirib o'tilgan.*

**Kalit so'zlar:** *Raqobat, banklar, raqobatni rivojlantirish, bank xizmatlari, ustuvor vazifalar.*

O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilgan bank-moliya tizimini isloh qilish va mustahkamlash bo'yicha maqsadli strategiyalar banklarning kapitallashuv darajasini oshirish, iqtisodiyotni kreditlash ko'lamini kengaytirish, ko'rsatilayotgan bank xizmatlari spektorlarini ko'paytirish, shuningdek, mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishda bank tizimining rolini oshirish imkonini beradi.

Bank xizmatlari sifatini yanada oshirish hamda tadbirkorlik sub'ektlari bilan to'laqonli hamkorlik munosabatlarini o'rnatish uchun tijorat banklarining ish uslublarini tubdan yaxshilash, aholi va xo'jalik subyektlarining bank tizimiga ishonchli institutsional hamkor sifatida qarash lozim.

Tijorat banklarida raqobatni rivojlantirish raqobatni rivojlantirish uchun quyidagi muhim tartiblarni amalga oshirish mumkin:

1. Texnologik rivojlanish: Tijorat sohasida texnologik o'zgarishlar: Internet banking, mobil ilovalar, to'lov tizimlari va shunga o'xshash innovatsiyalar banklar bilan mijozlar o'rtasidagi aloqani yanada qulaylashtirishi mumkin. Banklar, yangi texnologiyalarni qabul qilish va ularni joriy qilish uchun to'g'ri investitsiyalarni qilishi lozim.

2. Xizmatlarni kengaytirish: Raqobatni oshirish uchun banklar o'z xizmatlarini kengaytirishga intilishadi. Mijozlarga yanada ko'p imkoniyatlar taqdim etish, kreditlarni soddalashtirish, karta va hisobvarag'lar bilan bog'liq xizmatlarni oshirish, kundalik moliyaviy operatsiyalarni tezlashtirish va boshqalar kabi xizmatlarni kengaytirishni o'z ichiga oladi.

3. Mijozlarga foydali xususiyatlar: Raqobatni oshirish uchun banklar mijozlar uchun foydali xususiyatlarni taklif etishi kerak. Masalan, cashback, bonuslar, chegirmalar, undirishlar va boshqalar kabi imtiyozlar banklar bilan ishlashni yanada qulaylashtiradi.

4. Mijozlar bilan tashqi aloqalar: Bankning mijozlarga qulayliklar taqdim etish uchun mijozlar bilan o'zaro aloqalar o'rnatish, ularning takliflarini eshitish va ularga yordam berish lozim.

5. Xavfsizlikni ta'minlash: Mijozlarning shaxsiy ma'lumotlar va moliyaviy axborotlari bilan bog'liq xavfsizlikni ko'rsatish uchun yangi xavfsizlik texnologiyalarini joriy qilishi va himoya tizimlarini kuchaytirishi muhimdir.

6. Kooperatsiya va innovatsiyalar: Raqobatni oshirish uchun banklar o'zaro hamkorlik va innovatsiyalarga e'tibor berishi kerak.

Shuningdek, tijorat banklari moliyaviy muammolarni hal qilish uchun yuqori darajada xavfsizlikni ta'minlash va xodimlarni rivojlantirishga ham e'tibor berishlari kerak

Prognozlashtirish va makroiqtisodiy tadqiqotlar instituti (PMTI) ekspertlari yurtimiz bank sektoridagi raqobat darajasini baholadi. PMTIdan ma'lum qilishlaricha, buning uchun Xerfindal-Xirshman indeksi (HHI)dan foydalanildi. Chunki u raqobat darajasini ifodalaydigan konsentratsiya ko'rsatkichi hisoblandi. Ushbu ko'rsatkich bo'yicha mavjud bozorlar raqobat darajasiga ko'ra 3 guruhga bo'linadi:

- yuqori darajada konsentratsiyalashgan ( $1800 < HHI < 10000$ ); - o'rta darajada konsentratsiyalashgan ( $1000 < HHI < 1800$ ); - past darajada konsentratsiyalashgan ( $HHI < 1000$ ).

Bunda konsentratsiyalashuv darajasi qancha past bo'lsa, banklar o'rtasidagi raqobat muhiti shuncha yaxshi bo'ladi.

Tadqiqot davomida bank sektorining aktivlar bo'yicha konsentratsiya darajasi pasaygani aniqlandi. Agar u 2017-yilning 1-yanvarida 1122,2 ni tashkil qilgan bo'lsa, 2022-yilda 986,9 ga qadar pasaygan. Bu esa bank xizmatlari bozorida raqobat kuchayib borganligidan dalolat beradi.

Agar 2017-yilning boshida mamlakatimizdagi tijorat banklarining aktivlari hajmi 84,1 trillion so'mni tashkil etgan bo'lsa, joriy yilning 1-aprel holatiga ko'ra 449,5 trillion so'mga yetgan (o'sish 5,3 barobar). Shuningdek, tahlil qilinayotgan davrda kreditlar hajmi 6,5 barobar, depozitlar hajmi esa 4,1 barobar o'sgan.

2017-yilning yanvar oyida 3 ta bank (O'zmilliybank, O'zsanoatqurilishbank, Asakabank) ulushi bank tizimining barcha aktivlarida 49,4 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2022-yil holatiga ko'ra ularning ulushi 44,7 foizgacha qisqargan.

Bank sektorining kreditlar bo'yicha Xerfindal-Xirshman indeksi (HHI) 1238,8 dan 1115,9 gacha qisqargan va u "o'rta darajada konsentratsiyalashgan bozorlar" diapazonining pastki chegarasiga tobora yaqinlashmoqda. Holbuki, 2017-yilning oktyabr oyidan 2019-yilning oxirigacha indeks diapazonning yuqori qismiga yaqinroq edi. Bank sektorining depozitlar bo'yicha raqobat indeksi 811,7 dan 727,1 gacha qisqargani ma'lum bo'ldi. Demak, bank xizmatlari bozori past darajada konsentratsiyalashgan.

2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida ham davlat ulushiga ega tijorat banklarida transformatsiya jarayonlarini yakunlash, 2026-yil yakuniga qadar bank aktivlarida xususiy sektor ulushini 60 foizgacha yetkazish ko'zda tutilgan.

Xulosa qilib aytganda o'tkazilgan mazkur tadqiqot mamlakatimizda banklar o'rtasidagi raqobat kuchayib borayotganini ko'rsatdi. Davlat ishtirokini qisqartirish, xususiy sektor va xorijiy investorlarni jalb qilish bo'yicha ko'rilayotgan choratadbirlar raqobat muhitini yaxshilash va bank sektorini yanada rivojlantirishga xizmat qilmoqda.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-maydagi “2020 — 2025-yillarga mo‘ljallangan O‘zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to‘g‘risida” PF-5992-son farmoni.

2. [www.lex.uz](http://www.lex.uz)

3. [www.cbu.uz](http://www.cbu.uz)